

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi



Bo'lim boshlig'i

Ramz Rasuljanovich Abduraupov, PhD., dotsent

Telefon : +99871 237 48 81

Email: r.abduraupov@tiame.uz

Bo'lim haqida

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 515-son qarorining 14-bandiga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, bevosita institut tarkibiga kiradi.

Bo'limning asosiy maqsadi

Ta'lim sifatini nazorat qilish (TSNQ) bo'limining asosiy maqsadi TIQXMMI talabalari bilimlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini o'rganib borish, tahlil qilish, kadrlar tayyorlash sifati monitoringini yuritish, TIQXMMIning ichki attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish va uning natijalari bo'yicha ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish va oldini olish choralarini ko'rishdan iborat.

TSNQ bo'limining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning davlat ta'lim standartlari (DTS), malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlari, ishchi o'quv rejalari va fanning ishchi dasturlari bilan ta'minlanganligi hamda o'zaro muvofiqligini tahlil etish;
- TIQXMMI da ta'lim jarayoni sifatini, uning o'quv adabiyotlari va o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganish;
- talabalar bilimini baholash jarayonlarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish;
- talabalar bilimini baholash jarayonlari va natijalarining xolisligi va shaffofligini o'rganish;
- talabalar bilimini tanlanma asosida aniqlash uchun qo'shimcha ravishda nazorat ishlarini o'tkazish (mazkur nazorat natijasi talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichida aks etmaydi), natijalarni tahlil qilish, ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash jarayonlarini tashkillashtirish;
- TIQXMMI dekanatlari tomonidan shakllantiriladigan dars jadvallarini optimallashtirishda ishtirok etish;
- Har bir fan bo'yicha dars mashg'ulotlarini tahlil qilish va TIQXMMI rektoriga ma'lumotlar berib borish;
- talabalar davomati va professor-o'qituvchilarning darsga munosabatini monitoringini olib borish;
- baholash natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlash va ularning natijalari yuzasidan TIQXMMI kengashida hamda rektor yig'ilishida hisobotlar berib borish;
- bitiruvchilarning bilim darajasini o'rganish maqsadida yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari hujjatlari bilan tanishish;
- tashkiliy-huquqiy va metodik ko'rsatmalar asosida ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati monitoringini

olib borish va nazorat qilishni tashkil etish;

- TIQXMMIning ichki attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish va ichki attestatsiya natijalarini, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi ma'lumotlarni TIQXMMI rektoriga hamda Davlat inspeksiyasiga taqdim etish;
- ta'lim sifatini belgilovchi ko'rsatkichlarning holatini monitoring qilish, aniqlangan muammolar va kamchiliklar yuzasidan TIQXMMI rektoriga takliflar berish;
- ta'lim sifatini oshirish maqsadida professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida zamonaviy usullar va uslublardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;
- TIQXMMIning tarkibiy tuzilmalarida (fakultet, kafedra, bo'lim, markaz, akademik litsey) pedagog xodimlarning kasbiy malakasi holatini, shuningdek oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishlaridagi sifat darajasini aniqlash maqsadida ichki monitoringni o'tkazish, tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash, aniqlanagan kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo'yicha TIQXMMI rahbariyatiga takliflar kiritish;
- TIQXMMI professor-o'qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)ga mosligini tahlil qilish yoki ularning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tayyorlashdan o'tganligini yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligini o'rganish va xulosalarni TIQXMMI rektoriga ma'lum qilish;
- ta'lim jarayoni moddiy-texnik bazasi holatini tahlil qilish, uni rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;
- TIQXMMIda talabalar amaliyotining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni inobatga olgan holda tashkil etilganligi va uning samarasini nazorat qilish;
- TIQXMMI reytingini aniqlash, baholash, attestatsiya va ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etish;
- TIQXMMIdagi ijtimoiy muhit, kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini oshirish maqsadida doimiy ravishda talaba, ota-ona, professor-o'qituvchi va kadrlar iste'molchilari o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish;
- TIQXMMIdagi ijtimoiy muhit, kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini o'rganish maqsadida professor-o'qituvchilar va kadrlar iste'molchilari o'rtasida o'tkaziladigan ijtimoiy so'rovlar jarayonida ishtirok etish, natijalari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- bitiruvchilarning ta'limni keyingi bosqichiga o'qishga kirishi yoki ishga joylashishlarini tahlil qilishda ishtirok etish;
- respublika va xorijiy davlatlardagi ta'lim sifatini nazorat qilishga oid yangiliklarni doimiy o'rganib borish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- TIQXMMI reytingini xalqaro darajaga ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni oliy ta'lim muassasasi rahbariyati bilan birgalikda ishlab chiqish va uning ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etish;
- TIQXMMI tegishli tarkibiy tuzilmalari bilan hamkorlikda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan hamda o'quv seminarlari va treninglarni o'tkazish;
- TIQXMMIda ichki jamoatchi ekspertlar bazasini shakllantirish va ular bilan qo'yilgan vazifalar doirasida seminar mashg'ulotlarini muntazam ravishda o'tkazib borish;
- o'quv jarayoni bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion hamkorlik, innovatsion g'oyalar, ishlanma va texnologiyalarni kengaytirish yuzasidan takliflarni berib borish;
- TIQXMMI Kengashida, davra suhbatlari va anjumanlarda TSNQ bo'limi tomonidan ta'lim sifatini oshirishga oid amalga oshirilgan o'rganish va monitoring natijalari to'g'risida ma'lumotlar berib borish;
- ta'lim sifati holatini o'rganish natijalariga asoslanib tegishli takliflarni TIQXMMI rahbariyatiga taqdim etish.

Aloqa

Manzil: 100000. Toshkent shahar, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy

Bino/ofis: TIQXMMI, 11 - bino (9 qavatli), 5- qavat, 501 va 504-xonalar

Tel./faks: +99871 237 48 81,

E-mail: edu.control@tiame.uz



Xodjaev Dadaxon Akmarxanovich, f.-m.f.n., dotsent

Bosh mutaxassis (0,5 stavka)

Tel: +998 71 237-09-93; +998 71 237 48 81

E-mail: dhodjaev@tiame.uz



Eshpulatov Nodir Mamatqurbonovich, Ph.D., dotsent

Bosh mutaxassis (0,5 stavka)

Tel.: +998 93 000-06-25; +998 71 237 48 81

Email: n.ishpulatov@tiame.uz



Qalandarova Safiya Toxirovna, Ph.D., dotsent

Bosh mutaxassis (0,5 stavka)

Tel.:+99890 938 68 22; +998 71 237 48 81

E-mail: s.qalandarova@tiame.uz
